



## **KOREYS TILIDA HURMAT KATEGORIYASINING LEKSIK BIRLIKLAR ORQALI IFODALANISHI**

**Salimova Nigina Baxtiyorovna**

o'qituvchi, KIUF

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada koreys tilida leksik birliklar yordamida hurmatning ifodalanishi yoritilgan bo'lib, leksik birliklarning turlari, ularga misollarkeltirilgan. Koreys tili Sharq mamlakatlaridan biri bo'lganligi sababli bu tilde hurmat bilan murojaat qilish masalasi dolzarb bo'lib, tildagi qonun darajasida ko'riladi. Shuning uchun hurmat kategoriyasiga oid qonuniyatlarni bilish koreys tili o'rganuvchilari va tarjimonlar uchun muhim sanaladi. Maqolaning ahamiyati shundadir.

**Kalit so'zlar:** Hurmat kategoriyasi, leksik birliklar, tinglovchini hurmat qilish, to'ldiruvchini hurmat qilish 용 언, 체 언, 주체 높 임, 객체 높 임

**Абстракт:** В данной статье объясняется выражение уважения с помощью лексических единиц корейского языка, приводятся виды лексических единиц и их примеры. Поскольку корейский язык относится к числу восточных стран, то на этом языке является предметом уважительного обращения, и это указывается в юридических документах на этом языке. По этой причине знание респектабельной одежды важно для изучающих корейский язык и переводчиков. Такова важность статьи.

**Ключевые слова:** категория уважения, лексические единицы, уважение к слушателю, уважение к дополнению, 용 언, 체 언, 주체 높 임, 객체 높 임.



**Abstract:** This article discusses the expression of respect in Korean using lexical units, types of lexical units, and examples of them are given. Since Korean is one of the Eastern countries, respectful address is an issue in this language, which is indicated in the legal documents of the language. For this, knowledge of the clothes related to the category of respect is considered important for Korean language learners and translators. The importance of the article is as follows.

**Key words:** Category of respect, lexical units, respect for the listener, respect for the complement, 용언, 체언, 주체높임, 객체높임.

Hozirgi paytda jahonda davlatlarning o‘zaro hamkorligi har bir davlat ravnaqida muhim omil bo‘lib qolayotgan bo‘lsa yoshlarning chet tili o‘rganishi muhimligi ham mutanosib ravishda kuchayib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2021 yil 6 may kuni “Chet tillarini o‘qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari” yuzasidan videoselektor yig‘ilishida “Mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘rgatish bo‘yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo‘ladigan yangi tizimni yo‘lga qo‘yish vaqti-soati keldi” – deb alohida uqtirildi. Mazkur tizimni amaliyotga joriy etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi huzurida “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish” agentligi tashkil etilishi va uning asosiy vazifalaridan biri sifatida davlat tilidan xorijiy tillarga va xorijiy tillardan davlat tiliga professional tarjima qilish metodikalarini yaratish ekanligi ta’kidlandi[1].

Til madaniyat ko‘zgusi bo‘lib, u nafaqat real dunyoni, balki xalqning ijtimoiy o‘z-o‘zini anglashi, mentaliteti, milliy xarakteri, turmush tarzi, urf-odatlar, axloqi, qadriyatlar tizimi, dunyoqarashini aks ettiradi. Chet tilini o‘qitish sifatini oshirishning mazmun bazasi shaxsning til va nutq faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari hisoblanadi. Chet tili bir vaqtning o‘zida madaniy, ijtimoiy, axloqiy, tarixiy va boshqa qadriyatlarni o‘rganishning maqsadi va vositasi sifatida xizmat qiladi[2].

Ko‘rilayotgan mavzu ham bevosita chet tili o‘rganuvchilari uchun ham muhim hisoblanadi. Chet tilini o‘rganishda albatta u tilda so‘zlashuvchilarning so‘zlashish



madaniyati, urf-odatlarini ham birgalikda o'rganish muhim sanaladi. Ayniqsa, Sharq mamlakatlarida o'zaro hurmat masalasi muhim sanalib buni bilmaslik yoki notog'ri qo'llash katta ahamiyatga ega bo'lgan xato hisoblanishi ham mumkin.

Koreys tilida hurmat kategoriyasining leksikologik ifodalanishi ikki xil bo'ladi.

1. 용 언[3]–yongon. Kesim vazifasini bajaruvchi fe'l va sifat (Koreys tilida sifat fe'l kabi tuslanadi.) orqali hurmatning ifodalanishi.
2. 체 언– cheon. Ega vazifasini bajaruvchi ot, son, olmosh kabilar orqali hurmatning ifodalanishi.

가. 용 언–yongon.

Fe'l va sifat (yongon) orqali leksik hurmat shaklini yana ikki guruhga o'lish mumkin. Mavzu (ega)ni hurmat qilish, ya'ni –주체 높임[4] va to'ldiruvchini hurmat qilish, ya'ni –객체 높임.

① 주체를 높이는 경우– egani hurmat qilish holati

(1) ㄱ. 아버지께서는 집에 계십니다. - Dadamlar uydalar.

ㄴ. 할머니께서는 2년 전에 돌아가셨습니다.– Buvimlar 2 yil oldin vafot etganlar.

(1) ㄱ.da '계시다-kyeshida','있다-itta'(bor bo'lmoq)ning va '돌아가시다-toragashida','죽다-chukta'(vafot etmoq)ning hurmat bilan ifodalnish shakli hisoblanadi. Shu kabi egani hurmat qilishda qo'llaniladigan leksik ifodalar quyidagilardir:

있다(itta)–계시다(kyeshida)– bor bo'lmoq

마시다(mashida)–드시다(tishida) – ichmoq

먹다(mokta)–잡수시다(chapsushida), 드시다(tishida) – yemoq

아프다(aphida)–편찮으시다(phyonchanishida) – og'rimoq, betob bo'lmoq

죽다(chukta)- 돌아가시다(toragashida) – vafot etmoq

자다(chada)–주무시다(chumushida) – uxlamq

말하다(malhada)–말씀하시다(malsimhashida) – gapirmoq, so'zlamq



Egani hurmat qiluvchi leksik birliklarda soʻning tarkibida ‘시-shi’ hurmat qoʻshimchasi oʻzi mavjudligi sababli unga takror qoʻshilmaydi.

① 객체를 높이는 경우 – toʻldiruvchini hurmat qilish holati

(2) ㄱ. 동생에게 책을 주었다. Ukamga kitobni berdim.

ㄴ. 아버지께 책을 드렸다. Dadamlarga kitobni berdim.

(2) dagi kabi oluvchi soʻzlovchidan koʻra kichik boʻlsa ‘주다-chuda’, katta boʻlsa ‘드리다-tirida’ hurmat shaklidagi soʻzni qoʻllaymiz. Shu kabi gapdagi toʻldiruvchini hurmat qilish leksik ifodalari quyidagilardan iborat:

데리다(terida) – 모시다(moshida) – olib kelmoq, olib bormoq

만나다(mannada) – 뵈다(pvepta) – uchrashmoq

주다(chuda) – 드리다(tirida) – bermoq

묻다(mutta) – 여쭙다(yochchupta) – soʻramoq

나. 체언 – ot (olmosh, son) bilan hurmat ifodalanishi

Bunda ot hurmat yoki hurmatsizlikni ifodalash holati tushuniladi.

① ot hurmat yoki hurmatsizlikni ifodalash holati

(3) ㄱ. 이번 여름 방학에 할머니 댁에 가려고 한다. – Bu safargi yozgi taʼtilda buvimnikiga bormoqchiman.

ㄴ. 아저씨, 성함이 어떻게 되십니까? – Togʻa, yoshingiz nechada?

(3) da ‘집-uy’ soʻzi oʻrniga ‘댁’, ‘이름-ism’ soʻzi oʻrniga ‘성함’ kabi hurmat shakllari qoʻllangan. Shu kabi hurmatni bildiruvchi otlar quyidagilardir:

집(chip) – 댁(tek) – uy

이름(irim) – 성함(songham) – ism

나이(nai) – 연세(yonse) – yosh

밥(pap) – 진지(chinji) – ovqat



사람 (saram) –분 (bun) – odam

아내 (ane) –부인 (puin) – xotin

병 (pyon g) –병한 (pyonghvan) – kasallik

말 –말씀 – gap, so‘z

O‘zi yoki o‘ziga tegishli predmetni hurmatsislik (pasaytirish, yerga urish) bilan suhbatdoshni hurmat qilishni bildiruvchi otlar ham mavjud.

(4) ㄱ. 선생님 말씀이 웁다. – Ustozning gaplari to‘g‘ri.

ㄴ. 선생님께 드릴 말씀이 있습니다. – Ustozga aytadigan gapim bor edi.

(4) dagi ‘말씀-gap’ so‘zi hurmat so‘z hisoblansada, uni so‘zlovchi gapirganda o‘zini pasaytirib gapirish hisoblanadi. Shu kabi so‘zlovchini pasaytiruvchi otlar quyidagilardir:

말 –말씀 – gap

나 –저 –men

우리 –저희 – biz

Xulosa qilib aytganda, koreys tilida hamma leksik ifodalar ham hurmat yoki hurmatsizlikni bildirmaydi, balki bular mahsus so‘zlar hisoblanadi. Shuning uchun suhbat vaqtida doimo hurmat so‘zlari va grammatikalarini to‘liq bilish va to‘g‘ri qo‘llay olish muhimdir. Koreyslar bilan muloqotga kirishganda ularning yoshiga va lavozimiga ko‘ra to‘g‘ri so‘zlashish shakli, leksik birliklar qo‘llanilmasa u holda suhbatdoshi uni madaniyatsiz yoki tilni yaxshi bilmaydigan deb anglaydi.



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- [1] Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2022-yil 6-may kuni chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishi. Yuz.uz sayti.
- [2]<file:///C:/Users/Admin/Downloads/1529-Article%20Text-2685-1-10-20240318.pdf>
- [3] 이해림. 한국어 교재의 경어법 연구.청주대학교 일반대학원 석사학위 논문. 2010. 10-17쪽.
- [4] 샤리포바 무하시. 타지크어권 학습자를 위한한국어 높임 표현 연구. 배 재 대 학 교 대 학 원. 석사학위 논문. 2022. 49-52.